BO‘LAJAK SURDOTARJIMOLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI DAKTIL VA ISHORA NUTQI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK BLOKLI-MODUL TUZILMASI

Yembergenov Dauran Tileubergenovich
Nizomiy nomidagi O’zMPU “Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari ”kafedrasi o‘qitiuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv va maxsus ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida bakalavriat bosqichi bo‘lajak surdotarjimolarining kasbiy kompetensiyasini daktil hamda ishora nutqi vositasida rivojlantirishning didaktik blokli-modul tuzilmasi yoritilgan. Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan 60110300 – Maxsus pedagogika: Surdotarjimonlik ta’lim yo‘nalishi malaka talablari va o‘quv rejasi asosida 4 yillik ta’lim mazmuni bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy mezonlari — kognitiv-lingvistik, praksiologik-kommunikativ hamda refleksiv-aksiologik komponentlar va ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy-amaliy misollar vositasida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: surdotarjima, daktilologiya, imo-ishora nutqi, blokli-modul tizim, kognitiv-lingvistik component.

Mamlakatimizda inklyuziv va maxsus ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va shaxslarga ko‘rsatilayotgan surdopedagogik, logopedik, oligofrenopedagogik, tiflopedagogik hamda surdotarjimonlik yordamining sifatini yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvi, ta’lim olishi, huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta’minlashda malakali surdotarjimon kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.Bu borada 60110300 – Maxsus pedagogika bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talabi "Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar", Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, Milliy hamda tarmoq malaka ramkalari, shuningdek, sohaviy kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilarining talablari negizida ishlab chiqilgan asosiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi. Hujjat Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanib, 2025-yildan e’tiboran amaliyotga joriy etilishi belgilangan. Ushbu malaka talabi mazkur soha bo‘yicha mutaxassis tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari, Davlat attestatsiya komissiyalari,

ta’limni boshqaruvchi va sifatni nazorat qiluvchi vakolatli organlar hamda ish beruvchi tashkilotlar uchun majburiy me’yoriy asos vazifasini o‘taydi. Maxsus pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlash me’yoriy muddati 4 yil bo‘lgan kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Malaka ramkasining 6-malaka darajasiga mos keluvchi bitiruvchilarning kasbiy faoliyati kompleks tuzilmaga ega bo‘lib, ularga ta’lim muassasalari, davlat va nodavlat xizmat ko‘rsatish sohalari, sud-huquq organlari, OAV hamda turizm tizimlarida sinxron va onlayn surdotarjimon sifatida faoliyat yuritish imkoniyatini beradi.

Bakalavriat o‘quv dasturining umumiy hajmi 240 ECTS kreditini (7200 soat) tashkil etadi. O‘quv rejasi nazariy va amaliy tayyorgarlikning o‘zaro mutanosibligiga asoslangan bo‘lib, oliy ta’limning didaktik tamoyillari negizida bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi 4 ta asosiy didaktik blokdan iborat yaxlit tizimni hosil qiladi. Tizimning birinchi bosqichini 1–2-semestrlarni qamrab oluvchi Propedevtik va fundamental-biologik tayyorgarlik bloki tashkil etib, unda "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi", "Umumiy psixologiya", "Maxsus pedagogikaning klinik asoslari", "O‘zbek imo-ishora tili" fanlari hamda 4 kredit hajmidagi Malaka amaliyoti orqali talabalarning dunyoqarashi, nutq va eshitish analizatorlari patologiyasi hamda lingvistik poydevori shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichdagi 3–4-semestrlarga mo‘ljallangan Bazaviy-professional va metodik shakllanish bloki tarkibiga "Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya", "Inklyuziv ta’lim", "Daktilologiya va imo-ishoraga o‘rgatish metodikasi" fanlari kirib, daktil hamda ishora nutqini amaliy egallash va uni pedagogik nuqtai nazardan o‘rgatish metodikasi shakllantiriladi. Uchinchi bosqich — 5–6-semestrlardagi Maxsus-amaliy va praksiologik mustahkamlash bloki "Nutqiy muloqot texnologiyasi", "Surdotarjimonlik praktikumi", "Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik" va 6 kreditlik Malaka amaliyotini o‘z ichiga olib, turli ijtimoiy-kasbiy kontekstlarda tarjima qilish psixomotor ko‘nikmalarini hamda natsional kinesik vositalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Nihoyat, 7–8-semestrlarni qamrab oluvchi Sohaviy-amaliy yakunlovchi blok 30 kreditlik malaka amaliyoti (17 hafta), "Sinxron surdotarjimaning nazariy va amaliy asoslari", "Frazeologiyada imo-ishorani qo‘llash", "Jestuno" fanlari hamda 6 kreditlik Bitiruv malakaviy ishi (BMI) orqali real kasbiy muhitda hamda xalqaro darajada sinxron va frazeologik tarjima mahoratini oliy bosqichga olib chiqadi. O‘quv rejasida nazariy va amaliy ta’lim 100 hafta, malakaviy amaliyotlar 20 hafta hamda attestatsiyalar va BMI 29 haftani tashkil etadi. Ushbu blokli-modul tuzilmasida mutaxassislik fanlari mantiqiy zanjir hosil qilib, “O‘zbek imo-ishora tili”, “Daktilologiya va imo-ishoraga o‘rgatish metodikasi” hamda “Surdotarjima praktikumi” fanlari orqali poydevor qo‘yilsa, lingvistik tahlilni chuqurlashtirish uchun “Imo-ishora nutqi segmentatsiyasi” va

“Frazeologiyada imo-ishorani qo‘llash” fanlari kiritiladi. Keyingi bosqichda “Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik” fani orqali sohaviy leksika egallanadi va nihoyat “Xalqaro imo-ishora tili (Jestuno)” hamda “Sinxron surdotarjimaning nazariy va amaliy asoslari” fanlari bilan talabalarning tayyorgarligi global va oliy amaliy darajaga olib chiqiladi.

Tahlil va didaktik modellashtirish natijasida bo‘lajak surdotarjimon kasbiy kompetensiyasining tarkibiy mazmuni uchta asosiy mezon va ularga tegishli indikatorlar orqali belgilandi. Birinchi mezon bo‘lmish kognitiv-lingvistik mezon daktilologiya qoidalari, imo-ishora tilining morfologik, sintaktik va semantik tuzilishi hamda sohaviy terminologiya bo‘yicha bilim, daktil alifbosining grafik va kinetik tuzilishi, imo-ishoralarning 5 ta asosiy komponenti (konfiguratsiya, lokalizatsiya, harakat, orientatsiya va nomanual belgilar-mimika) haqidagi fundamental bilim, ko‘p ma’noli so‘zlar va frazeologik birikmalarni imo-ishora tilining o‘z grammatik qoidalari asosida ma’nodosh ekvivalentlarida qayta ifodalash bilimi hamda eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning axborotni qabul qilish va qayta ishlashning psixolingvistik xususiyatlarini qamrab oladi. Masalan, ekskursovod "Biz hozir tarixiy obidaning markaziy ansambliga kirib boryapmiz" degan jumlani aytganda, bo‘lajak surdotarjimon "ansambl" so‘zining musiqiy guruh emas, me’moriy majmua ekanini kognitiv tahlil qiladi va so‘zlarni so‘zma-so‘z o‘girmasdan, imo-ishora tilining sintaksisiga ko‘ra "Tarixiy binolar — atrofda to‘plangan — markaz — biz ichkariga harakatlanayapmiz" ko‘rinishida kognitiv ifodalaydi hamda buni fazoda aniq nomanual belgilar (nigoh, mimika) bilan boyitadi. Ushbu mezondagi lingvistik baza tarjimonga kerakli grammatik-xiremik instrumentlarni beradi, terminologik-semantik tahlil murakkab iboralarning asl ma’nosini ochadi, psixolingvistik anglash esa topilgan ma’noni eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxsning vizual fikrlash dunyosiga bexato moslashtiradi.

Ikkinchi mezon — praksiologik-kommunikativ mezon egallangan nazariy bilimlarni amaliy-kinesik va verballashmagan muloqot ravonligida namoyon etish darajasini ifodalaydi. U qo‘l-panja va barmoq motorikasi rivojlanganligi, daktilemalarni fazoda aniq konfiguratsiya qilish hamda harakatlarni lab artikulyatsiyasi bilan mukammal sinxronlashtirish qobiliyatini, sinxron tarjimani aniq, operativ xotira va diqqatni to‘g‘ri taqsimlagan holda bajara olishni hamda nomanual (mimika, pantomimika, fazoviy lokalizatsiya) vositalarni muloqot kontekstiga mos qo‘llay bilish malakasini aks ettiradi. Masalan, hujjatlashtirish jarayonida "Abdurahmonov Jahongir Mirzaahmedovich" atoqli oti aytilganda, tarjimon daktilogrammalarni fazoda geometrik aniqlikda va lab artikulyatsiyasini so‘zning talaffuz ritmiga to‘liq moslashtirib uzatadi. Shuningdek, publitsistik matndagi "Kechagi bo‘ron

tufayli qadimiy koshonaning katta ustuni qulab tushdi va atrofni chang-bulut qopladi" jumlasini tarjima qilishda tarjimon oldiy fazoda "koshona" va "ustun" nuqtalarini belgilab oladi hamda "qulab tushishi" va "chang qoplashi" harakatlarini shiddatli mimika, tana egilishi va nigoh yo‘nalishi bilan boyitib, voqeaning ko‘lamini kinesik transformatsiya qiladi.

Uchinchi mezon — refleksiv-aksiologik mezon esa nazariy va amaliy tayyorgarlikni kasbiy qadriyatlar tizimiga aylantirish, kasbiy deontologiya (axloqiy mas’uliyat, xolislik, konfidensiallik) me’yorlariga rioya etish va auto-tahlil (video-refleksiya, mikro-o‘qitish, refleksiv kundalik) orqali kognitiv hamda praksiologik xatoliklarni o‘z vaqtida korreksiyalash sifatini belgilaydi. Masalan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan fuqaro va ijtimoiy xodim muloqotini tarjima qilish jarayoni videoga olinayotganda, ijtimoiy xodim emotsional va noo‘rin e’tiroz bildirganda, bo‘lajak surdotarjimon shaxsiy his-tuyg‘ularini (achinish yoki jahl) tarjimaga aralashtirmay, fikrni xolis uzatadi. Darsdan so‘ng o‘z tarjimasi aks etgan video-arxivni auto-tahlil qilib, daktillashda sustlashgani hamda mimikasida beixtiyor norozilik aks etganini aniqlaydi va refleksiv kundaligiga muloqotda stress omili ortganda mimikada shaxsiy munosabat aks etib qolgani, kinesik xolislikni saqlash hamda daktil sur’atini oshirish ustida ishlash kerakligi haqida qayd kiritib, muammoli harakatlarni qayta mashq qiladi.Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat bosqichidagi bo‘lajak surdotarjimonlarni tayyorlashning didaktik blokli-modul tuzilmasi va uning mazmuniy komponentlari o‘zaro uzviy dialektik bog‘liqlikka ega. Kognitiv-lingvistik mezonning shakllanishi surdotarjimonda mustahkam nazariy va lingvistik poydevorni yaratadi. Ushbu poydevor praksiologik-kommunikativ mezon orqali amaliy-kinesik ko‘nikma hamda sinxron tarjima tezligiga aylanadi. Amaliyot va muloqot jarayoni esa refleksiv-aksiologik mezon vositasida nazorat qilinib, shaxsiy deontologik madaniyat hamda uzluksiz kasbiy kamolotni ta’minlaydi. Taklif etilgan didaktik model bo‘lajak surdotarjimonlarning kasbiy kompetentligini tizimli va samarali rivojlantirishga to‘liq xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. 60110300 – Maxsus pedagogika: Surdotarjimonlik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti va Malaka talablari. – Toshkent: TDPU, 2025.
3. M.M. Abdullaeva Bo‘lajak surdopedagoglarning imo-ishora nutqi vositasidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. bo‘yicha

fals. dok. (PhD) diss. – T., 2022. -130 b.
4. Z.N.Mamarajabova,M.M.Abdullayeva Daktil va imo-ishora nutыiga o‘rgatish metodikasi T.,2022.
5. Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika. – Toshkent, 2022.
6. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая речь. – Москва: Владос, 2004.
7. Stokoe W. Sign Language Structure: An Outline of the Visual Communication Systems of the American Deaf. – Journal of Deaf Studies and Deaf Education, 2005.